

## Tashqi qarzni samarali boshqarish taraqqiyotning muhim omili.

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi<sup>1</sup>

[x.shamsitdinova@tsue.uz](mailto:x.shamsitdinova@tsue.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizning umumiy tashqi qarzi dinamikasi tahlil qilingan hamda tashqi qarz olish sabablari va olingan qarzlarni samarali boshqarish, ularni o'z vatida qaytarishga bo'lgan mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati tadqiq qilingan. Shuningdek, tashqi qarz olishning ijobiy va salbiy jihatlari to'g'risida bir qancha olimlarning qarashlari keltirilgan va tegishli xulosa, takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi umumiy qarz, ichki qarz, moliyaviy muassasalar, YAIM, kreditor, zaxira.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan xalqimizning nafaqat kelajakda, balki bugun ham yaxshi yashashi uchun sharoit yaratish tamoyili asosida barcha jabhalarda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Albatta, aholining xayot darajasi, turmush sifatini oshirish, salomatligini saqlash, ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida ijtimoiy infratuzilmalarni takomillashtirish, sanoat korxonalarini ishga tushirish uchun katta miqdordagi sarmoya talab etiladi.

Ayni pandemiya sharoitida talab etiladigan katta mablag'larni faqatgina soliq, bojxona va boshqa yig'implardan tushadigan mablag'lar hisobiga shakllantirish murakkab. Odatda to'lov balansi manfiy, davlat byudjeti taqchilligi mavjud bo'lgan, imkoniyatlar cheklangan holatlarda yirik loyihalarni moliyalashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida tashqi qarzga murojaat qilish juda keng tarqalgan amaliyotdir. Nafaqat rivojlanayotgan, balki eng rivojlangan mamlakatlar ham o'z iqtisodiyotini yuksaltirishda uchun tashqi qarz omilidan mohirona foydalanadi. Masalan, tashqi qarz summasi YAIMga nisbatan AQSHda 138 %, Yaponiyada 237 %, Fransiyada 99 % ni tashkil etadi<sup>2</sup>. Hatto AQSHda tashqi qarz xalqaro monetar tizim asosini tashkil etuvchi omildir. Shunday ekan, bugungi globallashtirish va moliyaviy resurslar cheklangan zamonda tashqi qarz jalb etish va uni samarali boshqarish mamlakatning eng muhim moliyaviy vositalaridan biri hisoblanadi.

Arzon va uzoq muddatli tashqi qarzdan faqatgina bugungi davr xarajatlarini qoplash uchun emas, balki mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga imkon beradigan yirik infratuzilma va sanoat korxonalarini barpo etish uchun foydalanish ertangi taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Shunday bo'lsa-da, tashqi qarz umumiy miqdorining keskin ortishi yoki undan samarasiz foydalanish salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa bugungi kunda nafaqat iqtisodiyotimizni izdan chiqarishi, shuningdek, kelgusi avlodga ham tizimli muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Aynan shu bois, davlat tashqi qarzi bilan bog'liq nojo'ya oqibatlarning oldini olish maqsadida hukumat tomonidan bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qonun hujjatlari bilan davlat qarzi miqdorining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 60 foizdan oshirmaslik qat'iy belgilab qo'yildi. Davlat qarzini jalb qilish va ishlatishda shaffoflikni ta'minlash maqsadida davlat qarzi

<sup>1</sup> TDIU, Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

<sup>2</sup> <https://yuz.uz/uz/news/>



hisobidan moliyalashtirilgan va yakunlangan barcha loyihalar majburiy tartibda Hisob palatasi tomonidan auditdan o'tkaziladi. Qonunchilik palatasi deputatlari va OAV ishtirokida muhokama qilinib, keng ommaga muntazam ravishda e'lon qilinishi ta'minlanmoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mamlakatning tashqi qarz olishi, bir qancha xorijiy va mahalliy olimlar o'rtasida ko'p muzokaralarga sabab bo'ldi. Ba'zi olimlar bu qarzning mamlakat uchun bir necha zararlari borligini aytishsa, ba'zi iqtisodchi olimlar aksincha tashqi qarzlarning ijobiy natijalarini ta'kidlab o'tishgan.

Amerikalik iqtisodchi va nobel laureati Joseph Stiglitzning fikricha<sup>3</sup>, tashqi qarz olishning mamlakat uchun zararli bo'lishini aytadi va qarzni kamaytirish yoki to'lash yo'lini ko'rsatadi.

Carmen Reinhart fikricha<sup>4</sup> tashqi qarz olishning mamlakat uchun zararli emas, balki zarur bo'lishini aytadi. Uning fikriga ko'ra, qarzni samarali shaklda ishlatish orqali mamlakatni rivojlantirish mumkin.

Amerikalik iqtisodchi va eski IMF raisi Kenneth Rogoffning ta'kidlashicha<sup>5</sup>, tashqi qarz olishning mamlakat uchun zararli bo'lishini aytadi. Uning fikriga ko'ra, qarzni kamaytirish va mamlakatni mustaqil taraqqiyot yo'lini ko'rsatish kerak.

Nouriel Roubini<sup>6</sup>: Amerikalik iqtisodchi, tashqi qarz olishning mamlakat uchun zararli bo'lishini aytadi. Uning fikriga ko'ra, qarzni kamaytirish va mamlakatni innovatsiyalar yaratish yoki sarmoyalash orqali rivojlantirish kerak.

Britan iqtisodchi Martin Wolf fikrlariga ko'ra<sup>7</sup>, tashqi qarz olishning mamlakat uchun zararli emas, balki zarur bo'lishini aytadi. Uning fikriga ko'ra, qarzni samarali shaklda ishlatish orqali mamlakatni innovatsiyalar yaratish va rivojlantirish mumkin.

Paul Krugman<sup>8</sup>: Amerikalik iqtisodchi va nobel laureati, tashqi qarz olishning mamlakat uchun zararli bo'lishini aytadi. Uning fikriga ko'ra, qarzni to'lash uchun kerak bo'lgan mablag'larni samarali shaklda ishlatish kerak va mamlakatni innovatsiyalar yaratish yoki sarmoyalash orqali rivojlantirish mumkin.

Demak yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, tashqi qarzni to'lash uchun mamlakatning qimmatbaho resurslari (masalan, neft va gaz)ni sotib olishi kerak bo'lishi mumkin. Bu esa keyingi davrda mamlakat uchun katta zararlarga olib kelishi mumkin.

Yoki aksincha ijobiy holatiga to'xtaladigan bo'lsak, tashqi qarz olishning mamlakat uchun zararli emas, balki zarur bo'lishi mumkin va qarzni samarali shaklda ishlatish orqali mamlakatni rivojlantirish va mustaqil ekonomik taraqqiyotga erishish mumkin. Masalan, qarzni yaxshi tashkil etilgan investitsiyalar yordamida sarmoyalash va innovatsiyalar yaratish uchun ishlatish mumkin. Bunda muhim bo'lgan narsa shundaki, qarzni to'lash uchun kerak bo'lgan mablag'larni samarali shaklda ishlatish kerak, aks holda qarzning ortidan chiqib ketishi va mamlakat uchun zararli bo'lishi mumkin.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning mamlakatning tashqi qarz olishining salbiy va ijobiy holatlari to'g'risidagi ilmiy –nazariy qarashlari, o'quv qo'llanmalari, qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida analitik, monitoring, baholash va boshqa shu kabi taxlil usullaridan foydalanildi.

<sup>3</sup> Joseph E. Stiglitz. "The price of inequality". New York. W.W, Norton & Company. 2012.

<sup>4</sup> Carmen M. Reinhart, Kenneth S. Rogoff. "This time is different: Eight centuries of Financial Folly". Columbia. Princeton University Press. 2009.

<sup>5</sup> Carmen M. Reinhart, Kenneth S. Rogoff. "This time is different: Eight centuries of Financial Folly". Columbia. Princeton University Press. 2009.

<sup>6</sup> Nouriel Roubini. "Crisis economics: A crash course in the future of finance". New York. Penguin Press. 2010

<sup>7</sup> Martin Wolf. "The shifts and the shocks". New York. Penguin Press. 2015.

<sup>8</sup> Paul Krugman. "End This Depression Now!". New York. W.W, Norton & Company. 2012.



**Tahlil va natijalar**

Umuman olib qaraganda, O'zbekiston ko'proq moliyaviy institutlardan qarz oladi. O'zbekistonning tashqi qarzi miqdori oldingi yillarda olingan qarzlarga nisbatan o'syapti. Lekin boshqa davlatlar bilan solishtirib qaraydigan bo'lsak, qarzni yalpi ichki mahsulotga nisbatan hisoblasak, oshib borsa 40 foizga to'g'ri keladi. Bu katta emas. Ba'zi bir davlatlarning tashqi qarzi YaIMdan bir necha barobar yuqoriroq. Bizniki esa, hali YaIMning yarmiga ham yetmaydi. Bu katta summa emas. Agar jon boshiga hisoblasak ham davlat tashqi qarzi 509 dollardan to'g'ri kelyapti. Hammasini hisoblaydigan bo'lsak, 730 dollar.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliyaviy institutlardan (XMI) jalb qilgan tashqi qarz portfeli hajmi 11,3 mlrd. AQSh dollari yoki davlat tashqi qarzining 48,7 foizini tashkil etib, mazkur kreditlar uzoq muddat hamda imtiyozli foiz stavkalarida taqdim etilgan.<sup>9</sup>

**3-жадвал. Давлат ташқи қарзининг кредиторлар кесимида тақсимланиши (01.10.2022 й. ҳолатига)**

*ўлчов бир. - млрд. АҚШ долл. экв.*

| <b>ХМИ/ХХМТ</b>   | <b>Сумма</b> |
|---|--------------|
| Осиё тараққиёт банки                                    | 5,4          |
| Жаҳон банки   | 4,4          |
| Халқаро инвесторлар                                     | 2,6          |
| Хитой давлат тараққиёт банки ва бошқалар                | 2,1          |
| Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги                      | 1,7          |
| Хитой эксимбанки  | 1,9          |
| Иқтисодий тараққиёт ва ҳамкорлик жамғармаси ва бошқалар | 1,0          |
| Ислом тараққиёт банки                                   | 0,9          |
| Япония халқаро ҳамкорлик банки                          | 0,4          |
| Бошқа халқаро молиявий ташкилотлар                      | 2,8          |

Manba: Manba:stat.uz sayti yordamida muallif tomonidan tuzildi.

Xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan davlat tashqi qarzi qoldig'ining asosiy qismi Osiyo taraqqiyot banki (5,4 mlrd. AQSh dollari), Jahon banki (4,4 mlrd. AQSh dollari) va Islom taraqqiyot banki (0,9 mlrd. AQSh dollari) hissasiga to'g'ri keladi. Qayd etish kerakki, davlat tashqi qarzining manbalari diversifikatsiyasi ta'minlangan bo'lib, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) hissasiga davlat tashqi qarzi qoldig'ining 9,3 mlrd. AQSh dollari yoki 40,1 foizi to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasining asosiy kreditorlari Xitoy eksimbanki, Xitoy davlat taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va boshqa mamlakatlarning xorijiy hukumat moliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelib, asosan turli investitsion dasturlarni davlat kafolatlari ostida moliyalashtirilishi uchun qarz mablag'lari jalb etilgan. Kreditorlar oldidagi qarzdorlik bo'yicha xarajatlar davlat korxonalarini tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish natijasida tushgan mablag'lar hisobidan so'ndiriladi.

<sup>9</sup> [https://admin.openbudget.uz/media/post\\_attachments/DB\\_3Q2022\\_\\_gc9nPub.pdf](https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/DB_3Q2022__gc9nPub.pdf)



## 2-diagramma.

2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi tashqi qarzining dinamikasi tahlili va prognozlari.



Manba: stat.uz sayti yordamida muallif tomonidan tuzildi.

2020-yilda YaIMga nisbatan jami davlat qarzi keskin oshib, 2019-yildagi 29,7 foizdan 38,9 foizga yetgandi. Bunga tashqi qarzning 26,2 foizdan 35,2 foizga oshgani sabab bo'lgan edi. Ichki qarzda esa u qadar katta o'sish kuzatilmagandi — 3,5 foizdan 3,7 foizga.

Hisob-kitoblarga ko'ra 2021-yilda umumiy davlat qarzi YaIMga nisbatan 41,8 foizga yetdi.. Bunda tashqi qarz — 37,8 foiz, ichki qarz — 4 foiz.

Keyingi ikki yilda umumiy qarz miqdorida turg'unlik holati yuz berishi taxmin qilingan edi. Moliya vazirligining davlat qarzi dinamikasida ko'rsatilishicha, 2023-yilda YaIMga nisbatan davlat qarzi 2022-yildagi ko'rsatkich bilan bir xil bo'lib qolishi prognoz qilinaydi. Bunda ichki qarz 0,2 foizga ko'paysa, tashqi qarz xuddi shunchaga kamayishi mumkin.

Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda davlat qarzi YaIMga nisbatan 41,4 foizni tashkil qildi.. Ichki qarz 4,4 foiz, umumiy davlat qarzi esa 45,8 foiz bo'ldi. 2024-yilda esa YaIMga nisbatan umumiy davlat qarzi 45,8 foizdan 44,1 foizga pasayishi kutilmoqda. Bunda ichki qarz o'zgarishsiz qoladi. Tashqi qarz esa 41,2 foizdan 39,5 foizga kamayadi.

### Xulosa va takliflar

Shu o'rinda tashqi qarzni kamaytirish omillariga ham to'xtalib o'tsak, buning uchun mamlakatning ichki qarz miqdorini oshirish hamda kapital bozorini rivojlantirish muhim omildir.

Ichki qarz shakllanishi jarayonida moliyaviy mablag'larning mamlakat hududidan chiqib ketmasligi hamda mazkur jarayonda davlatning asosiy investori xalq bo'lishi davlatimizga bo'lgan yuksak ishonchni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, tashqi qarzni samarali boshqarish, ichki qarz va kapital bozorlarini uyg'unlikda rivojlantirish orqali aholimizning hayot darajasi va turmush sifati yuqori, eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishiga erishamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/>
2. Joseph E. Stiglitz. "The price of inequality". New York. W.W, Norton & Company. 2012.
3. Carmen M. Reinhart, Kenneth S. Rogoff. "This time is different: Eight centuries of Financial Folly". Columbia. Princeton University Press. 2009.



4. Carmen M. Reinhart , Kenneth S. Rogoff. “ This time is different: Eight centueies of Financial Folly”. Columbia. Princeton University Press. 2009.
5. Nouriel Roubini. “Crisis economics: A crash course in the future of finance”. New York. Penguin Press. 2010
6. Martin Wolf. “The shifts and the shocks” . New York. Penguin Press. 2015.
7. Paul Krugman. “End This Depression Now!” . NewYork. W.W,Norton&Company. 2012.
8. [https://admin.openbudget.uz/media/post\\_attachments/DB\\_3Q2022\\_\\_gc9nPub.pdf](https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/DB_3Q2022__gc9nPub.pdf)

